

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Xalqaro Budget Hamkorligi tashkilotining (International Budget Partnership) talablari asosida O‘zbekistonda budget ochiqligini ta‘minashning “milliy modelini” yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Xalqaro Budget Hamkorligi tashkilotining Budget ochiqligi indeksida O‘zbekiston natijalarni yaxshilash hamda budget ochiqligini ta‘minlashga to‘siq bo‘layotgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi; - Xalqaro Budget Hamkorligi tashkilotining uslubiyoti asosida mamlakatda budget shaffofligi va ochiqligini baholash uchun ichki monitoring tizimi ishlab chiqiladi; - axborot ochiqligini ta‘minlash jarayonida mavjud cheklovlarni bartaraf etish va budget ma‘lumotlarini onlayn platformalar orqali ommaga taqdim etish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi; - O‘zbekistonda budget jarayonlari ochiqligini baholashning “milliy modeli” yaratiladi; - davlat va davlat ulushi mavjud bo‘lgan tashkilotlarda budget ochiqligini sun‘iy intellekt yordamida baholab boruvchi maxsus dasturiy ta‘minot yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Iqtisodiyot va moliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2.	Iqtisodiy erkinlik indeksining tartibga solish subindikatorini doirasida mehnatga layoqatli aholining barqaror va samarali bandligini ta'minlash imkoniyatlarini aniqlash tizimini yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Iqtisodiy erkinlik indeksida Tartibga solish subindikatorini hisoblash uslubiyotini chuqur o'rganish orqali tahlil sifati oshadi, uslubiyot bilan ishlash bo'yicha mamlakat modeli yaratiladi; - nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ikki barobar oshirish, yoshlar orasida ishsizlik darajasini qisqartirish va IT sohasiga keng jalb qilish, mehnat migratsiyasi geografiyasini kengaytirishga qaratilgan asoslangan takliflar ishlab chiqiladi; - iqtisodiy erkinlik indeksining tartibga solish subindikatorini bo'yicha O'zbekiston indeksini 10 foiz birlikka oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. - mehnatga layoqatli aholining barqaror va samarali bandligini ta'minlash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tizim yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3.	Iqtisodiy erkinlik indeksida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasini optimallashtirish va samaradorligini oshirish tizimini yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Iqtisodiy erkinlik indeksida O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash maqsadida konsolidatsiyalashgan budjetni barqaror daromad manbalari bilan ta‘minlash va xarajatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi; - soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi; - davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar daromadliligi oshirish bo‘yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqiladi; - davlat budjetiga davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo‘yicha xarajatlar yukini optimallashtirish uchun tasniflash tizimini yaratiladi; - tadqiqot natijalari asosida o‘rta muddatli fiskal strategiyaning muqobil varianti ishlab chiqiladi; - iqtisodiy erkinlik indeksida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasini 10 foiz birlikka yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Iqtisodiyot va moliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
4.	O‘zbekistondagi mavjud logistika operatorlari (3PL, 4PL, 5PL) faoliyatini baholash va rivojlantirish bo‘yicha strategiya ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Logistika samaradorligi indeksida O‘zbekiston uchun past ko‘rsatkichlarga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etish maqsadida indeksda top-10talik davlatlar tajribasi asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi; - yirik korxonalar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlardan kelib chiqib, so‘rovnoma asosida logistika operatorlari ro‘yxati shakllantiriladi; - O‘zbekistondagi mavjud logistika operatorlari faoliyatiga salbiy ta‘sir etuvchi omillar aniqlanadi; - tahlillar natijasida mamlakatdagi logistika operatorlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi; - O‘zbekistondagi mavjud logistika operatorlari faoliyatiga salbiy ta‘sir etuvchi omillarning og‘irlik darajalari aniqlanadi; - logistika operatorlari faoliyati takomillashtirishda ijobiy ta‘sir etuvchi omillarga bog‘liqlik qonuniyatlari aniqlanadi; - Transport vazirligi tasarrufidagi manfaatdor tashkilotlarda maqsadli sinov tadqiqotlar asosida funksiyaviy faoliyatni baholash va takomillashtirish usuli ishlab chiqiladi; - Logistika samaradorligi indeksida O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlanadi; - O‘zbekiston manfaatlarini hisobga olgan holda asosiy xalqaro transport yo‘laklari diversifikatsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi; - 3PL, 4PL, 5PL logistika operatorlari faoliyatini baholash va rivojlantirish bo‘yicha strategiya ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Transport vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Transport vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
5.	Xalqaro tashuvlar holatini baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha raqamli platforma yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: Logistika samaradorligi indeksi doirasida - avtomobil va temir yo'l transporti infratuzilmasi holatini baholash usullarini chuqur o'rganish orqali tahlil va prognoz sifati yaxshilanadi; - avtomobil va temir yo'l transporti infratuzilmasiga ta'sir etuvchi omillar guruhi shakllanadi; - avtomobil va temir yo'l transporti infratuzilmasiga ta'sir etuvchi omillarning og'irlik darajalari belgilab olinadi; - logistika markazlari elektron xaritasi yaratiladi; - yo'l infratuzilmasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi; - O'zbekistonning LPI'dagi o'rnini yuqoriga ko'tarish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi; - Xalqaro tashuvlar holatini baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha raqamli platforma yaratiladi; - Platforma orqali xalqaro tashuvchi korxonalar uchun xalqaro transport koridorlaridagi holatlar, davlatlar bilan o'zaro bitimlar, tashishni amalga oshirishdagi zaruriy hujjatlar namunalari va ular bilan ishlash, xorijiy davlatlarda muammolarga duch kelgan tashuvchilar bilan operativ aloqa o'rnatish bo'yicha amaliy qo'llanma yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Transport vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Transport vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
6.	Elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish samaradorligini baholash tizimini joriy etish orqali aholining ulardan foydalanmaslik darajasini keskin kamaytirish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O‘zbekiston natijalari yaxshilashga qaratilgan, reytingda past ko‘rsatkichlariga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi; - mavjud elektron xizmatlarni, jumladan, ularning mavjudligi, ulardan foydalanish imkoniyati va qulayligi hamda foydalanuvchilarning qoniqishi darajasini aniqlash mexanizmi yaratiladi; - savolnoma va analitik ma‘lumotlardan foydalanuvchilar uchun muammoli holatlarni va to‘siqlarni aniqlash mexanizmi yaratiladi; - elektron xizmatlar samaradorligini baholash milliy metodologiyasi ishlab chiqiladi, asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tuziladi; - foydalanish chastotasi va foydalanuvchi tajribasi kabi parametrlar belgilanadi; - yaratiladigan platforma elektron hukumat tizimiga integratsiya qilinadi, o‘rnatilgan KPIlarni monitoringi yo‘lga qo‘yiladi; - aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanmaslik darajasini keskin kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Raqamli texnologiyalar vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
7.	Elektron hukumat tizimi ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlash bo'yicha yangi boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O'zbekiston Respublikasi elektron hukumat tizimini boshqarish muammolarini bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi; - elektron hukumatni boshqarishda muammolarni aniqlash va ularning reytingga ta'sirini baholash yo'lga qo'yiladi; - tizimli dinamik modellashtirish (System Dynamic Modeling) yaratiladi; - elektron hukumat tizimini yangicha boshqarish mexanizmi ishlab chiqiladi va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlanadi hamda reyting ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha ko'riladigan choralar samarasini oshirish uchun yangi yondashuvlar shakllantiriladi; - yangi boshqaruv usulining natijalarini baholash va monitoring qilish uchun ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi modeli ishlab chiqiladi va uzoq muddatli o'zgarishlarni bashorat qilish uchun monitoring tizimi yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Raqamli texnologiyalar vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo'nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
8.	O'zbekistonda innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarni statistik usullarda aniqlash uslubiyotini yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: Statistik samaradorlik ko'rsatkichlari indeksida: - innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar tanlangan (tajriba) hududlar bo'yicha aniqlanadi; - innovatsiya bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni yig'ishdagi tizimli muammolarni bartaraf etishning ilmiy va amaliy yechimiga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi; - innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarni aniqlashda statistik hisobini yuritishning jahon tajribasini o'rganish asosida (ilg'or mamlakatlar bo'yicha) O'zbekistonda statistik hisobini yuritish mexanizmi yaratiladi; - innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarni aniqlash bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'liq shakllantirish uslubiyoti yaratiladi; - O'zbekistonda innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarni statistik usullarda aniqlash uslubiyoti yaratiladi va tanlangan (tajriba) hududlarda statistik baholanadi hamda foydalanish uchun joriy qilinadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Milliy statistika qo'mita tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Milliy statistika qo'mitasi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
9.	Institutsional muhitning Global innovatsiya indeksiga ta'sirini baholash asosida uning samaradorligini oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Global innovatsiya indeksi (GII)da O'zbekiston indikatorlari o'rnini yaxshilash hamda mamlakatimiz pozitsiyasini oshirish imkoniyatlari samaradorligiga ko'ra tartiblanadi; - institutsional muhitning joriy holati va muammolarini tahlil qilish orqali regulyativ muhitni takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilanadi; - biznes muhiti va tadbirkorlik siyosatini rivojlantirish imkoniyatlari baholanadi; - ekologik barqarorlik ko'rsatkichlarining innovatsion rivojlanish bilan uzviy aloqasi baholanadi; - GIIdagi mamlakat o'rnini yaxshilash bo'yicha ilg'or xorij tajriba asosida O'zbekiston uchun mos jihatlari saralab olinadi; - innovatsiyalar uchun yo'naltirilgan resurs va sarmoyalar subindeksi (innovation inputs)ning innovatsion natijalar (innovation outputs)ga nisbatan ta'sir darajasi baholanadi; - innovatsion natijalar (innovation outputs) subindikator uchun sarflanayotgan resurslar samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi; - O'zbekistonda innovatsion rivojlanish uchun institutsional muhitni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar shakllantiriladi; - institutsional muhitning GIIdagi samaradorligini oshirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Innovatsion rivojlanish agentligida sinovdan o'tkaziladi hamda ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida xulosa olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
10.	O‘zbekistonning Global innovatsiya indeksi (GII)dagi reytingini oshirish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni barqaror moliyalashtirish usullarini ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Global innovatsiya indeksi (GII) doirasida jahon amaliyotida ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirish usullari tasniflanadi; - O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirishning joriy holatini tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlanadi; - O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi muammolar sabablari va unga ta’sir etuvchi omillar baholanadi; - O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirishda safarbar qilinayotgan va hisobdan chetda qolayotgan resurslar salohiyatini inobatga oluvchi uslubiy asoslar ishlab chiqiladi; - GIIdagi mamlakat o‘rnini yaxshilash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar (Janubiy Koreya, Malayziya, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Qozog‘iston)ning muvaffaqiyatli tajribalari asosida O‘zbekiston uchun takliflar ishlab chiqiladi; - O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirishning yangi manbalari va instrumentlari ishlab chiqiladi; - O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirishni tizimli diversifikatsiyalash bo‘yicha ilmiy-uslubiy qo‘llanma ishlab chiqiladi; - Ilm-fan va innovatsiyalarni xorijiy grantlar asosida moliyalashtirish bo‘yicha O‘zbekiston uchun yangi yechimlar ishlab chiqiladi; - GIIdagi mamlakat o‘rnini yaxshilashga xizmat qiluvchi ilm-fan va innovatsiyalarni barqaror moliyalashtirish tizimi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Innovatsion rivojlanish agentligida sinovdan o‘tkaziladi hamda ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida xulosa olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
11.	Global innovatsiya indeksi (GII)da inson kapitali sifatini oshirish orqali innovatsion rivojlanishga ta'sirini baholash 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Global innovatsiya indeksi (GII)ning Inson kapitali va tadqiqotlar yo‘nalishida O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash maqsadida hududlar va tarmoqlardagi inson resurslarining ilmiy salohiyati baholanadi; - baholash asosida inson kapitali sifatining o‘zgarishini belgilovchi omillar, hisoblash usul va ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif lar ishlab chiqiladi; - iqtisodiyot tarmoqlarida tadqiqotchilarga bo‘lgan talabni ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda aniqlash usullari ishlab chiqiladi; - ilmiy xodimlarni tayyorlashda istiqboldagi ehtiyojni ta'minlash hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirishda ilmiy xodimlarni rag‘batlantirishni baholash va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi; - xorijiy davlatlar tajribasi asosida ilmiy-innovatsion klasterlarini shakllantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi; - GIIning Inson kapitali va tadqiqotlar yo‘nalishida respublika o‘rnini yaxshilashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar loyihasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Innovatsion rivojlanish agentligida sinovdan o‘tkaziladi hamda ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida xulosa olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
12.	Global innovatsiya indeksida O‘zbekiston o‘rnini o‘rta va uzoq muddatlarda prognozlashtirish uslubiyotini ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Global innovatsiya indeksi (GII)da O‘zbekiston innovatsion salohiyatni baholash metodikasini chuqur o‘rganish orqali resursli va natijaviy komponentlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi; - raqobatbardoshlikni oshirishni (Global Competitiveness Report - WEF) innovatsion rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi baholanadi; - innovatsion rivojlanish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni mamlakatning GIIdagi o‘rnini yaxshilashga xizmat qilishini ta‘minlash, mazkur yo‘nalishdagi ishlarining samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yo‘llari asoslanadi; - raqamli texnologiyalar yordamida innovatsion jarayonlarni tezlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi (Accenture Technology Vision – sun‘iy intellekt, blokcheyn, 5G va boshqalar iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi); - GII komponentlari bo‘yicha mamlakatning reytingdagi o‘rnini yaxshilashga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlanadi (SWOT-, PEST-, VRIO- tahlil); - GIIda mamlakatning o‘rnini yaxshilashning o‘rta va uzoq muddatli prognozlashtirish uslubiyoti ishlab chiqiladi; - GIIda mamlakat o‘rnini yaxshilash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar (Janubiy Koreya, Malayziya, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Qozog‘iston)ning muvaffaqiyatli tajribalari orqali O‘zbekiston uchun ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Innovatsion rivojlanish agentligida sinovdan o‘tkaziladi hamda ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida xulosa olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
13.	Soliq ma'murchiligini “BRM uchun soliqlar” tamoyiliga moslashtirish orqali Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlovchi yangi “soliq dizayni”ni ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash maqsadida soliq ma'murchiligining Barqaror rivojlanish maqsadlari(BRM)ga yo'naltirilganligini baholab boruvchi maxsus metodologiya ishlab chiqiladi; - soliq tizimini BRMga moslashtirish yuzasidan dastlabki ekspertizasi asosida soliq ma'murchiligini BRM talablari bilan muvofiqlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi; - BRMning “Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish” maqsadiga erishishni ta'minlash uchun aholi salomatligiga zarar yetkazayotgan tovar va xizmatlarni aksiz solig'i yordamida tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqiladi; - soliq ma'murchiligining resurslarni adolatli tarzda qayta taqsimlash tamoyilini takomillashtirish yordamida BRMning “Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish” maqsadiga erishish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi; - BRMga erishish yo'naltirilgan soliq ma'murchiligining yangi dizayni ishlab chiqiladi; - BRM uchun soliqlar” tamoyillari asosida soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha har yillik soliq konsepsiyasiga va o'rta muddatli fiskal strategiyaga kiritish uchun takliflar tayyorlanadi; - soliq ma'murchiligini BRMga muvofiq ekanligini ko'rsatib boruvchi dasturiy ta'minot yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Iqtisodiyot va moliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
14.	Ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilashga qaratilgan axborot platformasini yaratish  	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - O‘zbekistonda “Ayollar, biznes va qonun” indeksini yaxshilashga qaratilgan huquqiy va amaliy tavsiyalar paketi ishlab chiqiladi; - “Ayollar, biznes va qonun” indeksi doirasida huquqiy axborot, tadbirkorlik bo‘yicha maslahatlar, o‘quv kurslar, moliyaviy imkoniyatlar, statistik monitoring tizimini o‘z ichiga olgan axborot platformasining konseptual modeli ishlab chiqiladi; - ayol tadbirkorlar, iqtisodiy faol ayollar, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va ilmiy doiralar uchun mo'ljallangan xizmatlarni optimallashtirish yo'llari aniqlanadi; - foydalanuvchi uchun qulay interfeys yaratiladi, interaktiv modullar, huquqiy maslahatlar, o‘quv kurslari va statistika bo‘limlari ishlab chiqiladi va platforma tarkibiga kiritiladigan asosiy axborot resurslari shakllantiriladi hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtiriladi; - axborot platforma yaratiladi; - platformani hukumat dasturlari va xalqaro donorlar bilan integratsiya qilish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha moliyaviy model shakllantiriladi. - platformani xalqaro tashkilotlar va hukumat idoralari bilan integratsiya qilinadi hamda ayollar tadbirkorligi bo'yicha grant va kredit dasturlar bilan bog'lanadi; - platforma yordamida taqdim etiladigan maslahat xizmatlarini optimallashtiriladi hamda o‘zbek, rus va ingliz tillarida ishlaydigan ko‘p tilli versiya yaratiladi; - hukumat, biznes sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda platformani rivojlantirish bo'yicha strategiya ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Uslubiy qo‘llanma, nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
15.	O‘zbekistonning Suveren kredit reytinglar tizimida “Investitsion daraja - BBB” toifasiga o‘tish strategiyasini ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Suveren kredit reytinglarning mamlakatlarni baholash uslubiyoti asosida O‘zbekiston suveren kredit reytingini miqdoriy ko‘rsatkichlar yordamida avtomatik baholash modeli yaratiladi; - O‘zbekiston sharoitiga mos keluvchi, suveren kredit reytingini oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi; - O‘zbekiston uchun Suveren kredit reytinglar tizimida “Investitsion daraja – BBB” toifasiga o‘tishini ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqiladi; - O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladigan takliflar tayyorlanadi; - O‘zbekistonning Suveren kredit reytinglar tizimida “BBB” toifasini olishiga xizmat qiladigan strategiya ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Iqtisodiyot va moliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.